

MA'NAVIY YETUK SHAXSNI TARBIYALASHDA TARIXIY XOTIRANING O'RNI

Abdurahmonova Malika Tolqunovna

Xususiy bog'cha rahbari

5-IDUM boshlang'ich sinfo qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ma'naviy yetuk insonni tarbiyalash, hamda ushbu jarayonda tarixiy xotiraning o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Inson, o'tmish, ajdodlarimiz, yovuz kuchlar, tarix, insoniyat, avlod, mustaqillik, taraqqiyot.*

Respublikani juda murakkab va og'ir yillarda boshqarib, mamlakat taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan milliy adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi SHarof Rashidovdek insonga nisbatanadolatsizlik qilindi. Inson tirik paytida uni ko'klarga ko'tarib, vafotidan keyin er bilan yakson etsa, qadrini beobro' qilsa, bu o'zi qanday davlat, qanday jamiyat bo'ldi, deya hayqirasan kishi. Biroq, afsuski yaqin o'tmishimizda ana shunday achchiq va achinarliadolatsizlik sodir etildi. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev shunday xulosa yasaydi: "Lekin, tarix guvoh, hayotda shundayadolatsizliklar ham bo'lar ekan. Agar har bir xalq, har bir davlat mustaqil bo'lmasa, boshqalar uning nafaqat dehqonini, nafaqat ishchisini, hattoki shoiru olimini ham, davlat arbobini ham istagancha tahqirlashi, insoniy sha'nini tuproqqa qorishi mumkin ekan". Darhaqiqat, biz yaqin o'tmishimizda kechgan ana shunday ayanchli voqealar misolida qo'lga kiritgan mustaqilligimizning naqadar buyuk ne'mat ekanligini, uning ahamiyati va mohiyatini, qadr-qimmatini yanada teran anglab etishimiz, uni har qanday yovuz kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz shartligini, sobiq sovetlar hududining ba'zi o'lkalarida eski tuzumni yana qaytarishga urinishlar bo'layotgan hozirgi paytda bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmasligimiz, mustaqillikning qadriga etishimiz zarurligini unutmasligimiz lozim.

Insoniyat va uning hayoti, avlodlar almashuvi, sivilizatsiyalar, jamiyat va davlatlar shakllanishi, o'tmishi va taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi fan tarix fanidir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov tarixning ma'naviyatda tutgan o'rniga yuksak baho bergen: "Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Kim bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixidan judo bo'lish — hayotdan judo bo'lish demakdir... Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqiqiy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas". Tarix fani — insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqeа, hodisa va jarayonlarini o'rganadi. Bu fan falsafa,

siyosatshunoslik, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san'atshunoslik fanlarining asosi hisoblanadi. Ushbu fanlar inson va jamiyat hayotining alohida jihatlarini o'rgansa, tarixning tadqiqot mavzui — aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o'tmishi va hozirgi davri xususidagi dalil va ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, to'plangan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan, umumlashtirishdir. Tarix fani moziyda sodir bo'lgan voqeа, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig'i va ma'nosini ko'rish imkonini beradi. Qachon, qayerda, qanday sababga ko'ra qanday voqeа-hodisa yuz bergen, oqibati nima bilan yakunlangan, uning bizga, hozirgi zamonga qanday daxli bor, degan savollarga javob topish orqali biz tarixdan saboq olamiz, uni anglaymiz. Ular qilgan hatolarni takrorlamaslikka, ular adashgan yo'llardan yurmaslikka harakat qilamiz. Tarix nafaqat ijtimoiy gumanitar fanlar asosidir, balki, aniq fanlarni o'rganishda ham o'rni beqiyosdir. Masalan hozirgi kunda butun dunyo foydalanib kelayotgan u orqali ko'plab texnikalar yasalayotgan "0" raqamini bizning buyuk bobokalonimiz al-Xorazmiy kashf etganlar.

Mustaqillik yillarida barcha sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlarni tarixiy jihatdan ilmiy tahlil qilgan holda xulosa berish tarixchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish"2 borasida 77-maqсад qo'yilgan. Zero, "o'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi"3, deb ta'kidladi Prezident Sh.Mirziyoyev. SHu boisdan ham, mustaqillikning o'tgan yillarida mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalardagi o'zgarishlarni haqqoniy o'rganish dolzarb vazifalardandir.

Ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotira hal qiluvchi o'rн tutadi. U o'zlikni his qilishni ta'minlaydi, hamdardlikni rivojlantiradi va o'tmishdan qimmatli saboqlarni taklif qiladi. Tarixni tushunish va qadrlash orqali odamlar o'zlarining madaniy merosi, qadriyatlari va an'analarini chuqurroq tushunishlari mumkin. Tarixiy xotira, shuningdek, harakatlarning oqibatlari haqida bizga o'rgatadi, bizga ongli qarorlar qabul qilishga va o'tmishdagi xatolarni takrorlamaslikka yordam beradi. Bu tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritishni rag'batlantiradi, odamlarga dunyoga kengroq nuqtai nazarni rivojlantirish imkonini beradi. Umuman olganda, tarixiy xotira o'zaro bog'liqlik tuyg'usini, donolik va farovon kelajakni qurishga intilish tuyg'ularini tarbiyalash orqali ma'naviy yetuk shaxs kamolotiga xizmat qiladi. Tarixiy xotira inson tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. U o'tmishni tushunish, bugungi kunni shakllantirish va kelajakni tasavvur qilish uchun asos yaratadi. Tarixni o'rganish orqali shaxslar oldingi avlodlarning tajribalari, yutuqlari va kurashlari haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'ladilar. Bu bilim insoniyat jamiyatni, madaniyatlarini va tsivilizatsiyalarining murakkabliklarini tushunishga yordam beradi. Tarixiy xotira, shuningdek, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, chunki u odamlarni asosiy

manbalarni tahlil qilishga, turli nuqtai nazarlarni baholashga va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi. Bundan tashqari, tarixni o'rganish o'quvchilarni turli hikoyalar va tajribalar bilan tanishtirish orqali empatiya va bag'rikenglikni rivojlantiradi. Bu inson huquqlari,adolat va ijtimoiy taraqqiyotning qadr-qimmatini qadrlashimizga yordam beradi. Shunday ekan, tarixiy xotira odamlarni dunyoning murakkabliklarida harakat qilish, ongli qarorlar qabul qilish va yaxshi keljakni shakllantirishda faol ishtirok etish uchun vositalar bilan jihozlaydi.

Shu munosabat bilan tarixni dohiylar emas, balki ongli va bunyodkor inson, xalq yaratishi haqidagi fikrlar yangicha mazmun va falsafiy ruh bilan bayon qilindi. Haqiqatdan ham, tarixni xalq yaratadi, uni yaratishda faol qatnashgan, xalq ruhida, ongida va qalbida o'zlaridan chuqur va o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar ham xalq farzandlaridir. Shu sababli tarixchi mutaxassislар ramziy ma'noda tarixni uni yaratgan va yaratayotgan xalqning tarjimai holiga qiyoslashadi. SHuning uchun ham qadimgi tarix, o'rta asrlar tarixi, zamona tarixi kabi iboralar ishlatalidi. Bular yaxlit holatda Vatanimiz tarixini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони/ <https://lex.uz/pdfs/5841063>.

2. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.–Тошкент:Ўзбекистон, 2021.-Б.288.

3. Ўзбекистонда Шароф Рашидов таваллудининг 100 йиллиги нишонланади. –Газета.uz, Жамият. 27 март.2017.

4. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи// XXI ASR, 2016 йил 15 декабрь.

5. Собирова Э. –Ўзбек тилининг изоҳли луғати||да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол.фан.бўй.фал.док-ри (PhD) дисс... – Тошкент, 2022.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: –Ўзбекистон миллий энциклопедияси|| Давлат илмий нашриёти, 2006. 3-жилд.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: –Ўзбекистон миллий энциклопедияси|| Давлат илмий нашриёти, 2006. 1-жилд.

8. Курбанов М. А. Таржимада новербал воситаларни тушуниб етиш муаммолари //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 227-235.

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: –Ўзбекистон